

XI-XIX ASRLARDA YARATILGAN AYRIM LUG'ATLARDAGI YER VA UNGA OID SO'Z VA SO'Z BIRIKMALARI

Abduraimova Dilchehra O'sar qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

2- bosqich 521-guruh talabasi

Imiy rahbar: Xidirova Iroda

Annotatsiya: Maqolaning o'rganish obyekti qilib XI- XIX asrlarda yaratilgan ayrim lug'atlardagi yer va unga oid so'z hamda so'z birikmalari olingan bo'lib, bu maqolada lug'atlardagi so'zlarga berilgan ayrim izohlardagi xatoliklar va kamchiliklarni bartaraf etish maqsad qilib olingan

Kalit so'zlar: «Devoni lug'otit-turk», «At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug'otit-turk», «Muhokamat ul-lug'atayn», , yerga oid so'z va birikmalar

Yer — Quyosh sistemasidagi Quyoshdan uzoqligi jihatdan uchinchi (Merkuriy, Venera sayyoralaridan keyin) sayyora. Hajmi va massasi jihatidan Yer katta sayyoralar ichida beshinchi o'rinda turadi. Yerdagi hayot borligi bilan u Quyosh sistemasidagi boshqa sayyoralardan farq qiladi. Biroq, hayot materiya taraqqiyotining tabiiy bosqichi bo'lganligi sababli Yerni koinotning hayot mavjud bo'lgan yagona kosmik jismi, hayotning Yerdagi shakllarini esa mavjudotning yagona shakllari deb bo'lmaydi. Til — millat ko'zgusi Qadimiy til sifatida e'tirof etilayotgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy qadriyat, o'zlikni anglash, mustaqil davlatchilik timsoli, ma'naviy boylik, xalqimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. 1989-90-yillarda tilimizga sof o'zbek tilidagi ayrim so'zlarni kiritishga olimlarimiz ko'p harakat qilgan. Masalan, “uchoq”, “tayyora”, “tikuchoq” singari so'zlarning asl ma'nosi berilsada, tushunsak ham qabul qilolmasligimiz mumkin. Misol uchun, Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otit turk” asarida turkiy xalqlar haqida shunday deyiladi: “Ularning o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l ularning tilida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar”. Bugungi globallashtirish jarayonida, turli tillar qarishib ketayotgan bir vaziyatda Qoshg'ariyning yuqoridagi fikrlari barchamizni ogohlikka chaqiradi. Ajdodlarimizdan meros bo'lgan bu qadriyatni boy berib qo'ymaslik uchun barcha imkoniyatdan samarali foydalanishga undaydi.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» («Turkiy so'zlar devoni» — turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda XI asrning 2-yarmida

Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan) asarini ko'zdan kechirar ekanman, shunday so'zlarni uchratishimiz mumkin **öz** (dara , tog'lardagi vodiya) , yana **en joq** (past , baland joy) , **opuz** (qattiq yer) , **oy opuz** (past va sahroli yer) va boshqa shunga o'xshash bir qator yerga oid so'zlarni uchratishimiz mumkin. Ushbu asarni ko'zdan kechirar ekanmiz o'zbek tili qadimdan qanchalik boy til ekanligini anglab yetamiz. Masalan, aynan bitta asarda bir so'zning bir nechta sinonimlari borligini ko'ramiz. **Titik** so'zini olaylik Mahmud Koshg'ariyning "Devonu- lug'otit turk" 1-tomi loy deb keltirilgan keyinchalik 186-betda **balçiq** (loy, balchiq) ma'nosida kelgan "Attuhfatuz zakiyat fil lug'otit turkiya" asarida esa birgina tovush bilan farqlagan ,ya'ni **balšiq** (155-bet) deb keltirilgan "Attuhfatuz zakiyat fil lug'otit turkiya" asarida **kal** , **qoçur** so'zlari sho'rxok yer ma'nosida kelgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu- lug'otit turk" 1-tomida sho'rxok yer ma'nosida **tebiz** so'zi keltirilgan. Yana qarqay"Devonu- lug'otit turk" 1-tomida o'tsiz , suvsiz joy ma'nosida kelgan aynan shu ma'noda "Attuhfatuz zakiyat fil lug'otit turkiya" asarida **taz** so'zi keltirilgan. "Devonu- lug'otit turk" 1-tomida bolalar yong'oq o'ynashi uchun qazilgan chuqur yerni **etäčlik** deb keltirilgan "Attuhfatuz zakiyat fil lug'otit turkiya" asarida esa **atič** deb keltirilgan. "Muhokamat-ul lulatayn" asarida ham bitta so'zning sinonimlari ham mavjud deyishimiz mumkin. Masalan, arsa (31-b) maydon ma'nosida kelgan yana bisot (32-b) so'zi ham maydon ma'nosida kelgan. Bundan kelib chiqqan holdi shuni xulosa qilishimiz mumkin o'zbek tili boy tildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Qoshg'ariy. Devoni lug'atit-turk. Toshkent : 1960
2. At-tuhfat uz-zakiyat fil-lug'ati turk
3. A. Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn
4. S. Normamatov. Leksikografiya asoslari. Toshkent:2020